

INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

*Zilola Tulyaganova, Inobatxon Yunusova, Matlyuba Ablakulova
TDIU SMMT-78 guruhanalari*

Bugungi kunda O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash ustuvor vazifadir. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalg qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bilan izohlanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi ko'p miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalg qilish imkoniyatiga ega: kafolat va imtiyozlarni o'zida aks ettiruvchi qonun hujjatlari; iqtisodiyotda xususiy sektor va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ortib borayotganligi, xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalanishi va raqobat muhitining mavjudligi; zarur investitsiya infratuzilmasining yaratilganligi va rivojlanayotganligi; siyosiy barqarorligi; geografik joylashuvining o'rta darajadaligi; boy tabiiy mineral xom ashyoga egaligi; qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanganligi; arzon va malakali mehnat resurslarining mavjudligi va boshqalar.

O'zbekistonda investitsiya iqlimining muhim omillaridan biri xorijiy investorlar uchun moliyaviy-iqtisodiy rag'batlar va imtiyozlar tizimining holati va amal qilishi hisoblanadi. Bunda mazkur rag'bat va imtiyozlar ishlab chiqarish sohasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirishga va asosan, eksport salohiyatini oshirishga qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizning davlat investitsiya siyosati uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan bo'lib, investorlarning samarali ishlashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan. Buning uchun O'zbekistonda barcha imkoniyatlar bor, ya'ni mamlakatimizning geografik joylashuvi qulay, transport tarmog'i yaxshi rivojlangan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma taraqqiy etgan, boy tabiiy resurslar hamda yuqori malakali kadrlar mavjud. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalg etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmiarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi;

milliylashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; kontsessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aksiyadorlik kapitalida hissani cheklash; majburiy eksport kvotasini joriy qilish; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Bugungi kunda davlatimizda investorlar uchun soliq og'irligini pasaytirishga va soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan soliq siyosati va soliq-tarif boshqaruvi islohotlariga muhim e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, investorlar bilan ishslashda, tashabbuslarning qo'llab quvvatlanmayotganligi, ularning hokimliklar, vazirliklar va turli idoralar o'rtaida muvofiqlashtirilmaganligi, ayniqsa byurokratik to'siq va g'ovlar mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish investorlarning ishonchini mustahkamlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mavjud vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki investitsiya faoliyatini yomonlashtiruvchi quyidagi salbiy omillar mavjudligi qayd etilmoqda: olingan investitsiya resurslaridan mintaqaviy va korporativ boshqaruv darajalarida samarasiz foydalanilayotganligi; investitsion menejment boshqaruvning sifatining pastligi; mulkchilik huquqining belgilanmaganligi; investorlarning ham, investitsiyalash ob'ektlarilarining moliyaviy ahvolining yomonligi; mablag'larni qaytarib olishda yuqori investitsiya xatarlari; davlatning moliyaviy va soliq siyosatidagi o'zgarishlarning yuqori darajadaligi; korporativ investitsiya bitimlarining (konsessiyalar, davlat-xususiy hamkorligining) rivojlanmaganligi; investorlarga qo'shimcha majburiyatlarning yuklanishi; nazorat organlarini investorlarning xo'jalik faoliyatiga aralashuvi; investorlarga manfaatdor bo'lmagan turli tadbirlar yuzasidan majburiyatlar yuklanishi; korxonalarga qarzdorlikni turli yo'llar bilan oshirib borilishi oshirish; soliq va bojxona soliqlari, shuningdek, davlat kafolatlari berishning noaniq tizimining mavjudligi va h.k.

E'tirof etilishicha, yuqorida qayd etib o'tilgan omillar tufayli investitsiyalar sohasidagi barcha hujjatlarni tubdan ekspertiza qilish va ularni xalqaro normalar asosida qayta tuzib chiqish talab etilmoqda.

Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi ekspertlar va ilmiy doiralar vakillari bilan hamkorlikda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun" konsepsiyasini ishlab chiqqanligi ham sohadagi eng muhim o'zgarishlardan bittasi bo'ldi deyish mumkin. Investorlar uchun eng muhim masalalardan biri bu soliq qonunchiligi hisoblanadi. Ya'ni birinchi navbatda,adolatli soliq ma'muriyatichilagini yo'lga qo'yish talab etiladi. Bu borada 2020 yilda soliq qonunchiligiga tubdan yangi o'zgarishlar qilinganligini alohida takidlash lozim.

Soliq kodeksiga muvofiq O'zbekistonda alohida tadbirkorlar, xorijiy yoki mahalliy investorlar uchun ham soliq imtiyozlari va preferensiyalarini belgilangan.

Biroq, soliq imtiyozlari berilishi investitsiya jalg qilinishiga har doim ham ijobiy ta'sir ko'rsatavermaydi.

Jahon bankining "Biznes yuritish – 2020" (Doing Business – 2020) yillik reytingida O'zbekiston 2019 yil yakunlari bo'yicha 100 baldan 69,9 ball to'plab, 190 mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi. O'tgan yilgi reytingga nisbatan mamlakat 76-o'rindan 7 o'ringa ko'tarildi. Bu natija bilan, O'zbekiston 2019 yilda biznes muhitini yaxshilashda eng yuqori rivojlanishga erishgan davlatlarning 20 talikga kiritildi.

Bu borada eng yaxshi 50 mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar qabul qilinganligini ham alohida qayd o'tib lozim.

Buyuk Britaniyaning "The Economist" jurnali taxriri yati olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi eng yaxshi islohotchi davlatlar sifatida qayd etilgan.

Investorlar uchun respublikadagi imkoniyatlar sirasiga: mamlakatimizdagи siyosiy barqarorlikni, tabiiy resurslarning boy zaxirasiga ega bo'lishlikni, keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlarini, iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish va ularni potensial investorlarga berish jarayonlarini kiritish mumkin

Investor ishonchli, xavfsiz, imtiyozli joyga pul tikishni istaydi bu oddiy qoida. Bu borada, mamlakatimiz investorlar uchun eng siyosiy barqaror davlatlar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni to'la investorlarning manfaatiga mos qilib tuzib chiqilgan.

Afsuski, O'zbekiston iqtisodiyotida mustaqillik yillarida investitsiya sohasida mamlakat taqdirini tubdan o'zgartiradigan qarorlar qilinmaganligini qayd etib o'tish lozim. Faqat 2017 yilga kelibgina bu borada jiddiy o'zgarishlarga qadam qo'yildi. Bu borada boy berilgan yillar iqtisodiyotni bir muncha turg'unlik holatiga keltirib qo'yanligi, rivojlanishni jadal suratlar bilan o'sishiga imkon bermaganligi, moliyaviy imkoniyatlarni taxlikali holatga solib qo'yanligi achchiq haqiqatga aylandi.

Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida narxlar va valyuta bozorini nisbatan erkinlashtirish, davlat mulkining bir qismini xususiy lashtirish va xususiy tadbirkorlikni bosqichma-bosqich rivojlanish bilangina cheklandi xalos. Asosiy harakatlar import o'mini bosishga qaratildi. Iqtisodiy rivojlanish uchun investitsiyalar, birinchi navbatda zarurligi anglangan holda xususiy investitsiyalarga ko'z tikildi. Hali rivojlanmagan investitsiya muhiti mukammallikdan ancha yiroqda edi. Davlat investitsiyalarni amalga oshirishda asosiy ko'makchi sifatida qaraldi. Ya'ni davlatning o'zi birinchi investorga aylanadi. Negaki hali oyoqqa tura olmagan xususiy sektorda investitsiyaga yo'nalitiriladigan mablag' yo'q edi. Xususiy investorlarni uskunalar sotib olish va ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batlantirish uchun imtiyozlar qator imtiyozlar berilishi asosan ko'p import qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'naltirildi.

Agar biz yangi ish o'rnlari yaratib, aholi daromadlarini ko'paytirsak va xuddi o'sha mahsulotlarni o'zimiz ishlab chiqarsak, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilsak barcha muammolar o'z o'zidan hal bo'ladigandek ko'rindi. Importni qisqartirishda eng muhim vosita esa bu konvertatsiyani yopish edi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmalariga katta kuch berilishi ham aslida puxta o'yangan namaqbul siyosatning natijasi edi.

Davlatning o'zagina iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga investitsiya kiritish bilan shug'ullanishi oqibatida, iqtisodiyotning ayrim sektorlariga samarasiz soliq imtiyozlari kiritildi, imtiyozli kreditlar berildi, bojxona to'lovlar keskin oshirildi va oxir oqibat iqtisodiy turg'unlikka yuz tutildi.

Xususiy tadbirkorlik uchun biznes muhiti yomonlashdi. Natijada, korxonalar yuqori va murakkab soliqlar bilan, kreditlashdagi, moddiy manbalardagi, valyutadagi cheklovlar bilan bo'g'ib qo'yildi.

Hukumat keyingi yillarda markazlashtirilgan investitsiyalar hajmini qisqartirdi, biznesni ochish va litsenziya olish mexanizmlarini soddalashtirdi, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlar shaffofligi soddalashtirdi, iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirdi, korxonalar va aholiga bank xizmatlarini ko'rsatishning ba'zi mexanizmlarini takomillashtirdi. Biroq bu ham keskin o'zgarishlarni ta'min eta olmadi.

Konvertatsiyadagi cheklovlar olib tashlanishi, eksport qiluvchilarga valyuta tushumining barcha qismining o'zlarida ushlab qolishi, biznesni yuritishdagi ko'plab ma'muriy to'siqlarni bartaraf etilishi, bojxona to'lovlarini kamaytirilishi, naqd pul berish va pul muomalasini normallashtirish bo'yicha cheklovlarini olib tashlanishi, bank tizimini liberallashtirish, soliq islohotlari, dunyo iqtisodiga ochilishi, vizasiz davlatlar ro'yxatining kengaytirilishi, vizalarni olish tartiblari soddalashtirilishi shular jumlasidandir.

Biroq, bozor iqtisodiyotini barpo etish sari qadam bosganga o'xshagan ko'rindik. Biroq, investitsion faollik va jadallikni oshirish yuzasidan bir dunyo me'yoriy hujjatlar qabul qilinganligi bilan real o'zgarishlar sezilarli siljishlarni tamin eta olmagandek tuyulmoqda.

Ochiq sivilizatsiyalashgan iqtisodiyotni yaratishga qanchalik tayyor ekanligimizni esa muammolar tuguni bosib qolmoqda. Biz investitsiya siyosatida eski falsafadan xaliga qadar to'la voz kechishni xohlamayapmiz. Bu ko'plab mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlashga va qashshoqlikdan qutulishga imkon beruvchi yangi falsafaga o'tishni anglatadi.

Hamma sohani rivojlantirishga urinmaslik, xususiy ishlab chiqaruvchilarga xalqaro mehnat taqsimotida o'zlarining o'rinalarini topishlari, nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan sohalarda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishlariga

birinchi navbatda tayanishlari lozimligini esdan chiqarmagan holda ishlarni tashkil etishimiz zarur deb o'ylaymiz.

Tadbirkorlar iqtisodiyotga faol ravishda sarmoya kiritishlari, samarali investitsiya qarorlarini qabul qilishlari va xalqaro mehnat taqsimotida o'zlarining o'rinlarini topishlari uchun esa ikkita shart bajarilishi kerak:

Birinchisi bu qulay investitsiya muhitini yaratish demakdir. U O'z ichiga quyidagilarni oladi: mult huquqlarini va bitimlarni himoya qilish; biznes uchun soliq xarajatlarining kamligi; biznes yuritishda soliqqa tortilmaydigan xarajatlarning pastligi; raqobatbardosh, ochiq va oshkora bozorlarga kirib borish.

Ikkinchidan investitsion qarorlar qabul qilishda investitsiya kirituvchi sarmoyador avvalo u o'zi ishlab chiqarmoqchi bo'lgan tovarlar va xizmatlarning narxlariga; u ishlab chiqarishda ishlatishi kerak bo'lgan resurslarning narxiga qaraydi; barcha sarflashi kerak bo'lgan xarajatlarni hisoblab chiqadi; mamlakatda va muayyan bozorlardabiznesning boshqa shart - sharoitlarini baholaydi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, u o'z kapitalini aynan qaysi mahsulotni ishlab chiqarishga investitsiya qilishi kerakligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, davlat resurslarni taqsimlash, narxlarni belgilash jarayoniga aralashishi bilan, importni cheklash, raqobatga to'siqlarni o'rnatish, soliq va kredit imtiyozlarini berish orqali, ishlab chiqaruvchilar uchun bozor signallari va qiziqishlarini buzmoqda. Va ular strategik noto'g'ri sarmoyaviy qarorlar qabul qiladilar, qiyosiy afzalliklarga ega bo'limgan biznes sohalariga sarmoya kiritadilar. Shu sababli, erkin raqobat, biznes yuritishda teng sharoitlar, erkin narx belgilash - samarali investitsiyalar va eksportga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirishning eng muhim shartlaridir. Shuning uchun imtiyozlar, importga to'siqlar, resurslarni taqsimlash va narxlarni belgilashda ma'muriy aralashuv voz kechish lozim.

Raqobat bo'limgan bozorlarga qilingan investitsiyalarning ko'p qismi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Biz esa samarasiz loyihalarga milliardlab pul mablag'larini sarflashda davom etmoqdamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliylashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt

jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada xorij investitsiyalar ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek, investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot toplash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.:" Iqtisod-moliya, 2007
3. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. О 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
- 10.Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.:«Академия. 2005.
- 11.Nazarova GG, Haydarov NX. International economic relations. Educational Manual. TDIU. 2005.
- 12.Назарова ГГ, Хайдаров НХ, Акбаров М. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Т.: МЧЖ "RAM-S. 2007.
- 13.Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.

- 14.G‘aybullayev, U O‘roqov.O ‘zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O ‘quv qo‘llanma. - T.: Baktriapress, 2016
- 15.Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg’armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
- 16.Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари"." (2017).
- 17.Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари"." (2017).
- 18.Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
- 19.Ўроқов У Файбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.–21 б, 2016